

**BOLALARDAGI TAFAKKUR VA IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA  
MAKTAB AMALIYOTCHI PSIXOLOGNING VAZIFALARI**

*O'rinboyeva Hulkar Atabek qizi*

*Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani 47-maktabi psixologi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bolalarda tafakkur va ijodkorlikni rivojlantirishda maktab amaliyotchi psixologining o'рни va vazifalari yoritiladi. Tafakkur va ijodkorlik shaxsning intellektual rivojlanishida muhim omil bo'lib, ularni rivojlantirishda psixologik yondashuvlarning ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, psixolog tomonidan qo'llaniladigan usullar va amaliy tavsiyalar ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** tafakkur, ijodkorlik, psixolog, o'quvchi, intellekt, rivojlanish, motivatsiya, qobiliyat.

**KIRISH**

Bugungi kunda ta'lim tizimida bolalarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va intellektual salohiyatini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu jarayonda maktab amaliyotchi psixologi alohida o'rin tutadi. Chunki psixolog o'quvchilarning individual xususiyatlarini o'rganib, ularning tafakkur va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Tafakkur insonning muammolarni hal qilish, tahlil qilish va xulosa chiqarish jarayonidir. Ijodkorlik esa yangicha fikrlash, noodatiy yechim topish va yangi g'oyalarni yaratish qobiliyatidir. Bu ikki jarayon bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, shaxsning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi.

Maktab amaliyotchi psixologining asosiy vazifalaridan biri — o'quvchilarning qobiliyat va qiziqishlarini aniqlashdir. Har bir bola o'ziga xos imkoniyatlarga ega bo'lgani uchun psixolog individual yondashuv asosida ish olib borishi kerak.

Psixolog tafakkurni rivojlantirish uchun turli treninglar, mantiqiy mashqlar va muammoli vaziyatlardan foydalanadi. Bu mashg'ulotlar o'quvchilarning mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ijodkorlikni rivojlantirishda esa erkin fikrlash muhitini yaratish muhimdir. O'quvchi o'z fikrini qo'rqmasdan ifoda eta oladigan muhitda ijodiy faollik kuchayadi. Shu sababli psixolog bolalarni rag'batlantirib borishi zarur.

Shuningdek, psixolog o'qituvchilar va ota-onalar bilan hamkorlikda ishlashi muhimdir. Chunki bolaning tafakkuri va ijodkorligi nafaqat maktabda, balki oilaviy muhitda ham rivojlanadi.

Psixologik jihatdan motivatsiya ham katta ahamiyatga ega. Bola o'z qobiliyatiga ishonishi va muvaffaqiyatga erisha olishiga ishonch hosil qilishi kerak. Rag'bat va qo'llab-quvvatlash bu jarayonda muhim omil hisoblanadi.

Bugungi axborot texnologiyalari rivojlangan davrda interfaol metodlar, o'yin

texnologiyalari va ijodiy topshiriqlardan foydalanish tafakkur va ijodkorlikni rivojlantirishda samarali natija beradi. Bundan tashqari, maktab amaliyotchi psixologi bolalarda ijodiy tasavvur va erkin fikrlashni shakllantirish uchun turli psixologik o'yinlar, rolli mashg'ulotlar va guruhiy treninglardan foydalanishi mumkin. Bunday mashg'ulotlar o'quvchilarning o'z fikrini erkin ifoda etishiga, muloqot ko'nikmalarining rivojlanishiga ham yordam beradi.

Tafakkurni rivojlantirishda kitob mutolaasi va tahliliy fikrlashga yo'naltirilgan topshiriqlarning ahamiyati ham katta. Psixolog o'quvchilarda kuzatuvchanlik, taqqoslash, umumlashtirish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishga e'tibor qaratadi.

Ijodkorlikni rivojlantirish jarayonida bolalarning qiziqishlari va ichki imkoniyatlarini hisobga olish muhimdir. Har bir bolaning qobiliyati turlicha bo'lgani sababli ularni bir xil mezon asosida baholash to'g'ri emas. Psixologning vazifasi — bolaning kuchli tomonlarini aniqlash va rivojlantirishdir.

Shuningdek, emotsional qo'llab-quvvatlash ham tafakkur va ijodkorlik rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'ziga ishongan va ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlangan bola yangi g'oyalarni ilgari surishga ko'proq intiladi.

Maktabda sog'lom psixologik muhit yaratish ham muhim omillardan biridir. O'quvchilar o'zini erkin va xavfsiz his qiladigan muhitda ularning ijodiy faolligi va mustaqil fikrlashi yanada rivojlanadi. Barchamizga ayonki, inson psixologiyasini tushunish, uni teran tahlil qilish va rivojlantirishga e'tibor berish, deyarli barcha davlatlarning ijtimoiy va iqtisodiy hayotida ustuvor vazifa bo'lib kelmoqda. Shu o'rinda aytib o'tishimiz lozimki, psixologiya fani va uning ilg'or vakillari tomonidan XX asr boshlarida asoslab berilgan psixologik xizmat ko'rsatish tizimining qulayligi, butun insoniyat uchun ahamiyatli voqea bo'ldi. Shuningdek, turli xil sohalarda psixologik xizmatning rivojlanib borishi insonlardagi turli xil xususiyatlarni anglab yetish va ijodkorlik ruhini yaqqol payqashga asos bo'ldi. Psixologik tafakkur bilan insoniyatni qanchalik darajada yaratuvchi ekanligi, har bir sohada o'zgacha ijod yondashuvi borligi namoyon qilindi va bir nechta ijodkorlik mezonlari asosida yaqqol o'z aksini topdi. Ijodkorlik nafaqat yozma tarzda balki boshqa turli xil ko'rinishda: rassomlik, haykaltaroshlik va hattoki ta'lim sohasida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir qatorda ijodkorning ijod psixologiya har qanday ijodiy asarning yaratilishida qanday ahamiyat kasb etishi haqida ham ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Tafakkur- inson aqliy faoliyatining yuksak shakli bo'lib, u obyektiv voqelikning ongda aks etish jarayonidir. Insoniyatning boshqa mahluqotlardan ustuvor jihatlaridan bittasi ham tafakkur qilish xususiyatiga ega ekanligi barchamizga ma'lum. Shu jumladan so'ngi yillarda turli xil sohalar doirasida psixologik tafakkur tushunchasi keng doirada qo'llanila boshladi. Xo'sh, psixologik tafakkur o'zi nima? Psixologik tafakkur bu siz bir qarashdayoq bevosita idrok etib bo'lmaydigan xususiyatlar va

atrofdagi dunyo munosabatlari haqida bilim olishga imkon beradi. Shu sababdan ham psixologik tafakkur shakllari bevosita falsafa va mantiq fanlari bilan uzviy bog'liq deb hisoblanadi

Biz insonlar nafaqat ko'rinish, xarakter jihatdan balki sixologik jihatdan ham bir-bir birimizdan keskin farq qilamiz va shu sababdan har bir insonda o'ziga yarasha shaxs psixologiyasi mavjud bo'lib bu uning boshqalardan farqli individual ekanini isbotidir. Shu o'rinda, insoniyatning eng qiymatli qobilyatlaridan biri ijodkorlik ekani barchamizga ma'lum va har qanday sohada ham ijod muhim omil sanaladi. Ijodkorlik- bu o'zgarlar anglolmagan narsani anglash, yangi g'oyalar asosida takrorlab bo'lmas bebaholikni yaratish deganidir. Shu o'rinda Hindistonlik Osho taxallusi bilan tanilgan buyuk faylasufning ijod haqidagi quyidagi jumlasiga e'tibor qaratsak: Ijod- borliqdagi buyuk isyondir

Chindan ham bu ta'rif shu qadar haqqoniy tarzda berilganki go'yoki har bir ijodkor o'zining ichki dunyosidagi buyuk isyonni butun dunyoga ayon qilish istagida bo'ladi. Shu bilan bir qatorda nufuzli amerikalik psixolog Avraam Maslouning fikricha, ijodkorlik har kimga xos, lekin ko'pchilikdagi bunday xususiyat atrof muhit ta'siri ostida yuzaga chiqolmay qoladi va asta-sekinlik bilan yo'q bo'ladi. Deyarli barcha inson biron ijodkorlik qobilyatiga ega holda dunyoga keladi faqat ulg'aygan sari bu xususiyatni o'stirib, rivojlantirib borish lozim. Shu o'rinda ijodkorlikning ham o'ziga xos bir nechta turlari haqida so'z yuritsak. Ijodkorlik turlari

1. Ilmiy ijodkorlik: allaqachon mavjud bo'lgan narsalarni qidirishni o'z ichiga oladi, lekin u bizning ongimizda yangidan kashf qilinadi. U dunyodagi hodisalarni va rivojlanishning turli shakllarini o'rganishga xosdir

2. Texnik ijodkorlik: ilmiy ijodkorlikka yaqin bo'lib, haqiqatdan ham nazariyotdagi ko'nikmalardan foydalanib, yangi g'oyalarni, amaliy o'zgarishlarni, kashfiyotlar va ularni yaratishni nazarda tutadi. Bu jarayonda jamiyat uchun yangi moddiy qadriyatlar yaratiladi.

3. Badiiy ijodkorlik: estetik qadriyatlarni yaratishdan iborat bo'lib, insonda ruhiy tajribalarni uyg'otadigan tasvirlardir. Bu jarayon ijodkorning botiniy dunyosidagi holatni qog'ozga ko'chirish demakdir.

4. Pedagogik ijodkorlik: pedagogik faoliyat sohasidagi yangi kashfiyot bo'lib, bu innovatsiya orqali muammolarni hal etishning noan'anaviy usuli hisoblanadi. Bunda har bir pedagog o'z zimmasidagi ma'suliyatli vazifaga ijodkorona yondashishi nazarda tutiladi. Yuqorida sanab o'tilgan ijodkorlik turlari hozirgi kunda har bir insonning faoliyatida muhim ro'l o'ynaydi. Shu jumladan turli xil sohalardagi ijodkorlarning ijod jarayonida yana bitta asosiy nuqta ham e'tiborimizni tortmay qolmaydi bu - ijod psixologiyasidir.

Aslida har qanday shaxsning yaratgan ijodiy asarida, u xoh rassomlik ishi bo'lsin xoh yozma janrdagi biron asar, muallifining o'z tafakkuridagi g'oyalar, turli xil tasvirlar

va boshqalardan farqli jihatlar yaqqol o'z aksini topadi, albatta, bu o'z o'rnida ijod psixologiyasi bilan uzviy bog'liq ekanini isbotlovchi dalildir. Misol uchun hayotga hech bir xayoliy tasavvurlarsiz real nigoh bilan qaraydiga ijodkorlarning asarlarida haqqoniy realizimning guvohi bo'lamiz chunki uning ijod jarayoni to'g'ridan-to'g'ri o'z psixologiyasi bilan bog'liq holda rivojlanib boradi. Aynan asardagi tasvirlarning haqqoniyliги kishini go'yoki o'sha muhitda nafas olishiga, atrofdagi voqea-hodisalarni o'z hayotida sodir bo'layotgandek his qilishiga sabab bo'ladi. Bu jihatdan har birimiz uchun ijod psixologiyasining asl mohiyatini anglash, u haqda teran mulohaza yuritish ko'p hollarda qiyinchilik tug'dirmaydi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, maktab amaliyotchi psixologi bolalarda tafakkur va ijodkorlikni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. To'g'ri psixologik yondashuv, qo'llab-quvvatlash va qulay muhit orqali o'quvchilarning intellektual va ijodiy salohiyatini yanada rivojlantirish mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. URL: <https://ziyo.com/docs/-4417140>(murojaat sanasi:25.05.2023)
2. Shoumarov G'. Ijodkorlikda psixologik tafakkur: ilmiy maqola. ' Buxoro: Xabarchi nashriyot, 1026. ' 26 b.
3. Wolfe T. Creativity in different spheres: Learning among the Creativity of New York. ' Colorado: Harlow UP, 1986. — 177 b.
4. Ошо. Ижод/Рус тилидан Олимжон Салимов // Жахон адабиёти. — 2021. — 292 б.
5. Ziyo net